
The importance of student journalism: analysis of international experience

Shahnoza Uzoqova Beknazarovna
shakhnozauzakova@gmail.com
Faculty of Foreign Languages,
Karshi State University

Annotation *This article analyzes the role and significance of student journalism in the journalism education system based on international experience. The study examines the article "Why student journalism matters" published in The Washington Post through qualitative analysis methods. The research reveals the importance of student journalism in developing professional competencies, strengthening editorial independence, improving critical thinking skills, and helping future journalists adapt to the real media environment. In addition, international media practices are comparatively interpreted in relation to journalism education and media activities in Uzbekistan. The findings demonstrate that journalism education should focus not only on theoretical knowledge but also on practical media activities, independent content creation, and stronger cooperation between media organizations and educational institutions. The study emphasizes the necessity of transforming journalism education from a purely informational approach into a practical and analytical model. At the end of the article, scientific and practical conclusions and recommendations for improving journalism education are proposed.*

Keywords *Student journalism, journalism education, international experience, media discourse, qualitative analysis, editorial independence, practical media activity*

Talaba jurnalistikasi ahamiyati: xalqaro tajriba tahlili

Shahnoza Uzoqova Beknazarovna
shakhnozauzakova@gmail.com
Xorijiy tillar fakulteti,
Qarshi davlat universiteti

Annotatsiya *Maqolada talaba jurnalistikasining jurnalistika ta'limi tizimidagi o'rni va ahamiyati xalqaro tajriba asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida AQShning The Washington Post nashrida e'lon qilingan "Why student journalism matters" maqolasi sifat tahlili asosida o'rganildi. Tahlil natijalari talaba jurnalistikasi bo'lajak jurnalistlarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish, tahririy mustaqillikni rivojlantirish, tanqidiy fikrlashni kuchaytirish hamda real media muhitiga moslashuv jarayonida muhim amaliy platforma vazifasini bajarishini ko'rsatdi. Shuningdek, xalqaro media tajribasi O'zbekiston jurnalistika ta'limi va ommaviy axborot vositalari amaliyoti bilan qiyosiy jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari jurnalistika ta'limida nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy media faoliyatini kengaytirish, multimedia kontent yaratish, faktcheking va raqamli jurnalistika ko'nikmalarini rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, OAV va ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish jurnalistika ta'limi samaradorligini oshirishga xizmat qilishi asoslandi. Talaba nashrlari va universitet media platformalarini rivojlantirish bo'lajak jurnalistlarning amaliy tajribasini oshirishda muhim omil sifatida baholandi. Mazkur yondashuv jurnalistlarning zamonaviy media muhitiga tez moslashuvini ham ta'minlaydi. Maqola yakunida*

jurnalistika ta'limini informatsion yondashuvdan amaliy-analitik modelga o'tkazish bo'yicha ilmiy-amaliy xulosalar va tavsiyalar ilgari suriladi.

Kalit so'zlar *Talaba jurnalistikasi, jurnalistika ta'limi, xalqaro tajriba, media diskurs, sifat tahlili, tahririy mustaqillik, amaliy media faoliyat*

Значение студенческой журналистики: анализ международного опыта

Шахноза Узоқова Бекназаровна
shakhnozauzakova@gmail.com

Факультет иностранных языков,
Каршинский государственный университет

Аннотация *В данной статье анализируются роль и значение студенческой журналистики в системе журналистского образования на основе международного опыта. В ходе исследования методом качественного анализа была изучена статья "Why student journalism matters", опубликованная в The Washington Post. Анализ показал, что студенческая журналистика играет важную роль в формировании профессиональных компетенций будущих журналистов, развитии редакционной независимости, критического мышления и адаптации к реальной медиасреде. Кроме того, международный медиаопыт был сопоставлен с системой журналистского образования и практикой средств массовой информации Узбекистана. Результаты исследования свидетельствуют о необходимости усиления практической медийной деятельности наряду с теоретической подготовкой, развития навыков самостоятельного создания мультимедийного контента, фактчекинга и цифровой журналистики, а также укрепления сотрудничества между СМИ и образовательными учреждениями. Особое внимание уделяется значению студенческих медиаплатформ как среды формирования профессионального опыта и развития аналитических способностей будущих журналистов. Подчеркивается необходимость внедрения мультимедийных и конвергентных моделей обучения в образовательный процесс. В заключении статьи выдвигаются научно-практические выводы и рекомендации по переходу журналистского образования от информационного подхода к практико-аналитической модели.*

Ключевые слова *Студенческая журналистика, журналистское образование, международный опыт, медиадискурс, качественный анализ, редакционная независимость, практическая медийная деятельность*

Kirish

Zamonaviy media makonida jurnalistika ta'limi masalalarining yoritilishi jamiyatning bu sohaga bo'lgan munosabatini shakllantiruvchi muhim omillardan biri hisoblanadi (McQuail,

2010). Ommaviy axborot vositalari nafaqat axborot uzatish, balki muammolarni aniqlash, ularni tahlil qilish hamda jamoatchilik muhokamasiga olib chiqish orqali faol kommunikativ institut sifatida namoyon bo'ladi

(Entman, 1993). Shu jihatdan, OAVning kun tartibini shakllantirishdagi roli jurnalistika ta'limi masalalarining jamiyatda qanday qabul qilinishini belgilaydi (McCombs & Shaw, 1972).

O'zbekiston Respublikasida ham axborot ochiqligi, ommaviy kommunikatsiyalarni rivojlantirish hamda jurnalistika sohasini modernizatsiya qilish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida ommaviy axborot vositalarining jamiyatdagi rolini kuchaytirish, axborot ochiqligini ta'minlash va professional jurnalist kadrlarni tayyorlash masalalariga alohida e'tibor qaratilgan (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, 2017). Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi Qonunida OAVning xolis, ishonchli va to'liq axborot yetkazishdagi mas'uliyati belgilab qo'yilgan (O'zbekiston Respublikasi Qonuni, 2007). Bu esa jurnalistika ta'limining sifatini oshirish hamda uni media amaliyoti bilan integratsiyalash zaruratini yanada kuchaytiradi (Potter, 2013).

Biroq kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, jurnalistika ta'limiga oid materiallar ko'pincha informatsion xarakter bilan cheklanib, ularning analitik va konseptual yoritilishi yetarli darajada ta'minlanmayapti (Vartanova, 2019). Natijada muammolar asosan fakt sifatida qayd etilib, ularning sabab-oqibat bog'liqligi va tizimli xususiyatlari chuqur ochib berilmaydi. Bu esa jurnalistika ta'limiga oid masalalarning jamoatchilik ongida fragmentar va yuzaki shakllanishiga olib keladi (Pocheptsov, 2018). Bunday holat nafaqat milliy media makoniga, balki xalqaro jurnalistika amaliyotiga ham xos muammo sifatida qayd etilmoqda. Xususan, ayrim tadqiqotlarda zamonaviy jurnalistika axborot yetkazish bilan cheklanib, murakkab ijtimoiy masalalarni chuqur tushuntirish va tizimli bilimga aylantirishda yetarli

samaradorlikni ta'minlay olmayotgani ta'kidlanadi (Kovach & Rosenstiel, 2021). Bu esa jurnalistika ta'limi muammolarini OAVda yoritishning sifat jihatdan yangi modelini ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltiradi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-iyundagi PF-154-sonli "Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqlik darajasini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni axborot ochiqligi va jamoatchilik bilan kommunikatsiya mexanizmlarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, 2022). Mazkur normativ-huquqiy asoslar jurnalistika ta'limi va media amaliyoti o'rtasidagi integratsiyani kuchaytirish, OAVda jurnalistika ta'limi masalalarini tizimli va analitik yoritish zaruratini dolzarb ilmiy muammo sifatida belgilaydi (UNESCO, 2023).

Metodologiya

Joriy tadqiqotda jurnalistika ta'limiga oid xalqaro media materiallarini tahlil qilishda sifat tahlili (qualitative analysis) usulidan foydalanildi (Creswell, 2014). Tadqiqot obyekti sifatida AQShning yetakchi nashrlaridan biri bo'lgan The Washington Post gazetasida e'lon qilingan "Why student journalism matters" nomli maqola tanlab olindi (The Washington Post, 2023).

Tahlil jarayonida maqolaning mazmuniy tuzilishi, unda ilgari surilgan asosiy g'oyalar, muammo talqini hamda jurnalistika ta'limiga oid yondashuvlar diskursiv va semantik jihatdan o'rganildi (Fairclough, 1995). Xususan, maqolada talaba jurnalistikasi fenomenining ta'lim jarayonidagi o'rni, uning kasbiy shakllanishiga ta'siri hamda ijtimoiy ahamiyati tahlil qilindi (Potter, 2013).

Shuningdek, maqolada aks etgan yondashuvlar O'zbekiston media makonidagi mavjud tendensiyalar bilan qiyosiy tarzda talqin qilinib, o'xshash va farqli jihatlar aniqlashga harakat qilindi (Vartanova, 2019). Bu metodologik yondashuv jurnalistika ta'limiga oid muammolarni xalqaro tajriba asosida tahlil qilish hamda ularni milliy media

amaliyoti bilan bog'lash imkonini berdi (McQuail, 2010).

Natijalar

Tahlil obyektini sifatida The Washington Post nashrida 2023-yilda e'lon qilingan "Why student journalism matters" nomli maqola tanlab olindi (The Washington Post, 2023). Mazkur materialda talaba jurnalistikasi jurnalistika ta'limining muhim amaliy komponenti sifatida talqin qilinadi. Xususan, maqolada talaba jurnalistlarga real media muhitida faoliyat yuritish imkoniyatini yaratish ularning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishdagi muhim omillardan biri sifatida baholanadi (Potter, 2013).

Shuningdek, materialda tahririy mustaqillik, tanqidiy fikrlash hamda amaliy media tajribasi jurnalistika ta'limining ajralmas tarkibiy qismi sifatida ko'rsatiladi (McQuail, 2010). Maqolada asosiy urg'u talaba jurnalistlarga mustaqil kontent yaratish imkoniyatini berish zaruratiga qaratilgan. Ta'kidlanishicha, aynan mustaqil jurnalistik faoliyat talabalarda axborotni tahlil qilish, media etikasi va jurnalistik standartlarga rioya qilish ko'nikmalarini shakllantiradi (Kovach & Rosenstiel, 2021). Bu esa jurnalistika ta'limining faqat nazariy bilimlar bilan cheklanmasligi, balki real amaliy tajriba bilan mustahkamlanishi zarurligini ko'rsatadi (Deuze, 2006).

Bundan tashqari, maqolada talaba jurnalistikasi ijtimoiy ahamiyatga ega kommunikativ fenomen sifatida ham talqin qilinadi (Entman, 1993). Talaba jurnalistlar lokal muammolarni yoritish orqali axborot ochiqligi va jamoatchilik nazoratini ta'minlashga hissa qo'shishi qayd etiladi. Shu jihatdan, ular nafaqat o'quvchi, balki faol kommunikativ subyekt sifatida namoyon bo'ladi (Habermas, 1989).

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, maqolada jurnalistika ta'limi muammolari nazariy mulohazalar orqali emas, balki amaliy media faoliyati misolida ochib beriladi. Asosiy muammolar sifatida talabalar uchun real media muhit yetishmasligi, tahririy erkinlikning


cheklanishi hamda talaba jurnalistikasining institutsional qo'llab-quvvatlanmasligi ko'rsatiladi (UNESCO, 2023).

Shu bilan birga, maqolada jurnalistika ta'limini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari sifatida talaba jurnalistikasini rivojlantirish, talabalarni real media jarayonlarga jalb etish hamda mustaqil kontent yaratish imkoniyatlarini kengaytirish zarurligi asoslanadi (Vartanova, 2019). Olingan natijalar xalqaro media tajribasi va O'zbekiston media makonidagi mavjud holatni qiyosiy tahlil qilish zaruratini ko'rsatadi (Pocheptsov, 2018).

Muhokama

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, talaba jurnalistikasi jurnalistika ta'limining ajralmas amaliy komponenti sifatida uning samaradorligini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Xususan, xalqaro media tajribasida talaba jurnalistikasi real media muhitning modeli sifatida shakllanib, jurnalistlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Mazkur yondashuv O'zbekiston media makonidagi mavjud holat bilan qiyoslanganda muayyan tafovutlar kuzatiladi. Mahalliy amaliyotda jurnalistika ta'limi ko'proq nazariy bilimlar bilan chegaralanib, talabalarni real media jarayonlarga jalb etish yetarli darajada yo'lga qo'yilmagan. Natijada talabalarning amaliy tajribasi cheklangan bo'lib, bu ularning kasbiy moslashuv jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatadi.



1-rasm. Mahalliy va xalqaro media yondashuvlari qiyosi

(Manba: tadqiqot doirasida o'rganilgan mahalliy va xalqaro media materiallarining qiyosiy sifat tahlili asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan)


Diagramma natijalari O'zbekiston OAVlarida jurnalistika ta'limiga oid materiallar asosan informatsion xarakterga ega ekanligini ko'rsatadi. Xalqaro media tajribasida esa analitik va tanqidiy yondashuv elementlari nisbatan yuqori darajada namoyon bo'ladi. Bu esa jurnalistika ta'limini yoritishda tizimli va konseptual yondashuvni kuchaytirish zaruratini anglatadi. Shuningdek, O'zbekiston OAVlarida jurnalistika ta'limiga oid materiallar asosan informatsion xarakterga ega bo'lib, talaba jurnalistikasi, uning muammolari va imkoniyatlari yetarli darajada analitik yoritilmaydi. Bu esa mazkur yo'nalishning media kun tartibida mustahkam o'rin egallamasligiga olib keladi.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, talaba jurnalistikasining samarali rivojlanishi uchun tahririy mustaqillik, ochiq axborot muhiti hamda ta'lim va media o'rtasidagi uzviy hamkorlik muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan ushbu omillar talabalarni real jurnalistik faoliyatga tayyorlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston sharoitida jurnalistika ta'limini takomillashtirish uchun quyidagi yo'nalishlarni rivojlantirish zarur:

- talaba jurnalistikasi platformalarini rivojlantirish;
- talabalarni real media loyihalarga jalb etish;
- tahririy mustaqillik elementlarini joriy etish;
- OAV va ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish.

Natijada, jurnalistika ta'limini rivojlantirish informatsion modeldan amaliy va analitik modelga o'tishni talab qiladi.



2-rasm. Jurnalistika ta'limiga oid media materiallarning yondashuv modeli

(Manba: jurnalistika ta'limiga oid media materiallarning diskursiv tahlili asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan model)

Aynan shunday transformatsiya jurnalistika ta'limining sifatini oshirish, talabalarni zamonaviy media muhitiga moslashtirish hamda ularning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish imkonini kengaytiradi.

Xulosa

Mazkur tadqiqot natijalari jurnalistika ta'limi muammolarining OAVda yoritilishi ularning miqdoriga emas, balki mazmuniy chuqurligi va analitik yondashuv darajasiga bevosita bog'liqligini ko'rsatdi. Xalqaro media tajribasi, xususan AQSh nashrlarida talaba jurnalistikasi fenomenining yoritilishi jurnalistika ta'limining amaliy komponentini kuchaytirish zarurligini yaqqol namoyon etdi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, talaba jurnalistikasi jurnalistlarning kasbiy

shakllanishida muhim rol o'ynab, ularni real media muhitga tayyorlashda samarali vosita hisoblanadi. Shu bilan birga, O'zbekiston media makonida mazkur yo'nalish yetarli darajada rivojlanmagan bo'lib, jurnalistika ta'limi ko'proq nazariy va informatsion yondashuv doirasida qolib ketmoqda.

Natijada, jurnalistika ta'limini takomillashtirish uchun uni amaliyot bilan integratsiyalash, talaba jurnalistikasini rivojlantirish hamda OAVda ushbu yo'nalishni analitik va tizimli yoritish zarur. Aynan shunday yondashuv jurnalistika ta'limining sifatini oshirish, uning ijtimoiy ahamiyatini kuchaytirish va zamonaviy media talablariga moslashtirish imkonini beradi.

References:

1. McCombs, M. E., & Shaw, D. L. (1972). The agenda-setting function of mass media. *Public Opinion Quarterly*, 36(2), 176–187.
2. Entman, R. M. (1993). Framing: Toward clarification of a fractured paradigm. *Journal of Communication*, 43(4), 51–58.
3. McQuail, D. (2010). *McQuail's mass communication theory* (6th ed.). SAGE Publications.
4. Habermas, J. (1989). *The structural transformation of the public sphere: An inquiry into a category of bourgeois society*. MIT Press.
5. Fairclough, N. (1995). *Media discourse*. Edward Arnold.

6. The Washington Post. (2023). *Why student journalism matters*.
7. Potter, W. J. (2013). *Media literacy* (7th ed.). SAGE Publications.
8. Kovach, B., & Rosenstiel, T. (2021). *The elements of journalism: What newspeople should know and the public should expect* (4th ed.). Crown.
9. Deuze, M. (2006). Global journalism education. *Journalism Studies*, 7(1), 19–34.
10. UNESCO. (2023). *Journalism, media and global education report*. UNESCO.
11. Creswell, J. W. (2014). *Research design: Qualitative, quantitative, and mixed methods approaches* (4th ed.). SAGE Publications.
12. Vartanova, E. L. (2019). *Media systems and journalism education*. Moscow State University Press.
13. Pocheptsov, G. G. (2018). *Media and information influence*. Folio.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2017, February 7). *PF-4947-son Farmon: O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida*.
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2022, January 28). *PF-154-son Farmon: 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida*.
16. O'zbekiston Respublikasi. (2007). *Ommaviy axborot vositalari to'g'risida* [Law of the Republic of Uzbekistan].